**Rasulova Dilrabo Abduxoshim qizi,**
ToshDO‘TAU 4-kurs talabasi
rasu1lovad2004@gmail.com +998 90 098 88 62

# ONA TILI DARSLARIDA INTEGRATIV METODLAR ORQALI O‘QUVCHINING KOGNITIV FAOLLIGINI OSHIRISH

**Annotatsiya**

Ona tili darslarida integrativ metodlardan foydalanish o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning o‘quvchilarning fikrlash, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalariga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, metakognitiv refleksiya, mujassamlashgan idrok va tanqidiy diskurs tahliliga asoslangan darslarni tashkil etish yo‘llari taklif etiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi ona tili ta’limida integrativ metodlarni zamonaviy kognitiv yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirgan metodik model ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

**Kalit so‘zlar**

integrativ metodlar, kognitiv faollik, mujassamlashgan idrok yondashuvi, metakognitiv yondashuv, tanqidiy diskurs, fanlararo integratsiya.

**Аннотация**

Использование интегративных методов на уроках родного языка играет важную роль в повышении когнитивной активности учащихся. В статье раскрывается влияние занятий, организованных на основе интегративного подхода, на развитие у обучающихся навыков мышления, анализа и самостоятельного вывода. Также предлагаются пути организации уроков, основанные на метакогнитивной рефлексии, подходе воплощённого познания и критическом дискурс-анализе. Научная новизна исследования заключается в разработке методической модели, интегрирующей интегративные методы с современными когнитивными подходами в обучении родному языку.

**Ключевые слова:**

интегративные методы, когнитивная активность, подход воплощённого познания, метакогнитивный подход, критический дискурс, межпредметная интеграция.

**Abstract**

The use of integrative methods in mother tongue lessons plays a significant role in enhancing students’ cognitive activity. The article examines the impact of learning activities organized on the basis of an integrative approach on the development of learners’ thinking, analytical skills, and ability to draw independent conclusions. In addition, the study proposes ways of organizing lessons based on metacognitive reflection, the embodied cognition approach, and critical discourse analysis. The scientific novelty of the research lies in the development of a methodological model that integrates integrative methods with modern cognitive approaches in mother tongue education.

**Keywords**

integrative methods, cognitive activity, embodied cognition approach, metacognitive approach, critical discourse, interdisciplinary integration..

Ona tili darslarida o‘quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirish bugungi kunda pedagogik jarayonning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Kognitiv faollik, o‘quvchining fikrlash, tahlil qilish, mantiqiy va ijodiy qobiliyatlarini faol ishlatish qobiliyatidir. Integrativ metodlar esa turli fanlar va o‘quv faoliyati elementlarini birlashtirish orqali bu jarayonni samarali qilish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining til siyosatini takomillashtirishga oid farmonlarida ham o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish

ustuvor vazifa sifatida belgilangan. [1] O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini birlashtirib, ularni faol ravishda qo‘llash esa integrativ metodlarning asosiy vazifalaridan biridir. Tilshunos va pedagog K. Nishonovaning ta’kidlashicha, “Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog‘liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarining ishlashi va o‘rganish ob’ektining yaxlitligi tartibga solinadi.”[2]. Amaliy jihatdan integrativ metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, vaziyatlarni tahlil qilish va bilimlarni real kontekstlarda tizimli qo‘llash qobiliyatini faollashtiradi. Misol uchun, ona tili darsida grammatika va lug‘at, adabiy matn va yozma mashqlar birlashtirilgan integrativ mashqlar o‘quvchilarning nutqiy va mantiqiy ko‘nikmalarini bir vaqtda rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagog R. Ibragimovning fikricha, “o‘quvchilarga muammoli vaziyatlarni berish va ularni o‘z bilimlari asosida hal qilish imkoniyatini yaratish, kognitiv faollikni oshirishning samarali usulidir”[3]. Shu yondashuv dars jarayonini faqat bilim berishdan cheklamay, o‘quvchilarning faol ishtiroki va kreativ fikrlashini rag‘batlantiradi. Shu tarzda, integrativ metodlar o‘quvchilarning kognitiv va kommunikativ faoliyatini uyg‘un ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi, dars jarayonini interaktiv va dinamik qiladi. O‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirish jarayonida integrativ metodlarning o‘rni nafaqat bilimlarni birlashtirishda, balki fikrlash jarayonini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Integrativ yondashuv turli fanlardan olinadigan bilimlarni ona tili darsiga moslashtirib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini va bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishini ta’minlaydi. Masalan, matn mazmunini tahlil qilish va qisqa og‘zaki yoki yozma ijodiy ishlar berish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘quvchilar muammoli vaziyatlarni hal qilishda turli qarashlarni solishtiradi, o‘z fikrini asoslab bildiradi va boshqa fikrlarni baholashga o‘rganadi. Integrativ metodlar yordamida darslarni tashkil etish o‘quvchilarda mustaqil ish va guruhli faoliyatni uyg‘unlashtirishga imkon beradi. Guruhli ishlash orqali o‘quvchilar bir-birining fikrini tinglaydi, tahlil qiladi va muammoni hal qilish bo‘yicha umumiy qarorga keladi. Shu yondashuv o‘quvchilarning nafaqat kognitiv faolligini, balki muloqot madaniyati, og‘zaki nutq ko‘nikmalarini va ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Integrativ metodlarning amaliy jihati shundaki, ular darsni faqat nazariy bilim berishdan iborat bo‘lmagan, balki interaktiv, dinamik va qiziqarli faoliyatga aylantiradi. Masalan, o‘quvchilar turli fanlardan olingan ma’lumotlarni tahlil qilib, loyiha yoki taqdimot shaklida birlashtiradi. Shu tarzda ular bilimlarni chuqurroq o‘zlashtiradi, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini oshiradi. Bu yondashuv dars jarayonida o‘quvchining faol tafakkurini rag‘batlantiradi va integrativ metodlarni tizimli qo‘llash orqali kognitiv faollikni maksimal darajada oshirish imkonini beradi. Shu bilan ona tili darslari nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning tafakkur, ijodiy va amaliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali pedagogik vositaga aylanadi.

Integrativ metodlar pedagogik jarayonda o‘quvchilarning kognitiv faolligini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi. Integrativ metod ta’lim jarayonida ma’lum bir g'oya yoki maqsad asosida, turli xildagi faoliyat yo‘nalishlari, o‘qitish usullari hamda turli fanlarni uyg‘unlashtirib, birlashtirgan holda qo‘llaniladigan metodlar to‘plamidir. Ushbu metodlarning asosiy vazifasi, ta’lim olayotgan o‘quvchiga berilayotgan bilimlarni qismlarga bo‘lib o‘rgatmasdan, balki uzviy, chambarchas hamda hayotdagi voqea-hodisalarga asoslangan holda

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni.

[2] Nishonova K. *Integrativ ta`lim tushunchasi va uning mazmun mohiyati* // Ilmiy anjumanlar jurnali. – 2024. – 26-aprel. – B. 662.

[3] Ibragimov R. *Kognitiv faollikni rivojlantirish metodikasi*. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

yetkazishdir. Tilshunos va pedagog N. Karimovning fikricha, “integrativ metodlar o‘quvchilarning tafakkurini kengaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga va o‘z bilimini amaliy faoliyatda qo‘llashga rag‘batlantiradi”[4]. Bu yondashuv darslarni faqat nazariy bilim berishdan cheklamay, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi. Amaliy jihatdan integrativ metodlar bir nechta asosiy shakllarda qo‘llanadi. Birinchi shakl – matn va grammatik mashqlarni birlashtirish. O‘quvchilar adabiy matnni o‘rganib, uning mazmuni asosida grammatik vazifalarni bajaradi, so‘z va iboralarni kontekstga mos qo‘llashni amaliy mashqlar orqali o‘rganadi. Shu jarayonda o‘quvchilar talaffuz va intonatsion urg‘uni nazorat qiladi, matn mazmunini tahlil qiladi, qisqa og‘zaki yoki yozma ijodiy ishlar bilan fikrini ifodalaydi. Pedagog S. Nazarova ta’kidlaydiki, “integrativ mashqlar o‘quvchilarning kognitiv va ijodiy qobiliyatlarini bir vaqtda rivojlantirish imkonini beradi, darsni interaktiv va qiziqarli qiladi”[5]. Ikkinchi shakl – muammoli vaziyatlar va rolli o‘yinlar orqali mashqlarni amalga oshirish. O‘quvchilarga matnga asoslangan vaziyatlar berilib, ular guruh yoki juftlikda ushbu vaziyatni hal qilishga harakat qiladi. Bu jarayon o‘quvchilarda tahlil qilish, qaror qabul qilish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi, talaffuz va nutq madaniyatini oshiradi. Shu bilan birga, o‘quvchilar bir-birining fikrini tinglab, ularni baholaydi va o‘z qarorlarini asoslaydi, bu esa muloqot va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Shuningdek, integrativ metodlarni qo‘llashda multimediya vositalaridan foydalanish amaliy samaradorlikni oshiradi. O‘quvchilarga professional nutq namunalarini tinglatish, talaffuzni imitatsiya qilish va intonatsion urg‘uni qayta ishlash imkoniyati beriladi. Shu orqali o‘quvchilar o‘z nutqini tahlil qiladi, xatolarni aniqlaydi va tuzatadi, bu esa kognitiv faollikni yanada kuchaytiradi.

Integrativ metodlarning tizimli qo‘llanilishi o‘quvchilarning faolligini oshiradi, darslarni interaktiv va ijodiy qiladi. Mashqlar individual va guruhli formatda olib borilib, har bir o‘quvchi o‘z bilimini mustaqil ravishda ishlatadi, fikrlarini ifodalaydi va boshqalar bilan muvofiqlashtiradi. Shu tarzda, integrativ metodlar ona tili darslarini nafaqat bilim berish jarayoni, balki o‘quvchilarning tafakkur, kreativ va amaliy qobiliyatlarini rivojlantirish vositasiga aylantiradi. O‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirishda integrativ metodlarning samarasi ularni faol kuzatuvchi va tadqiq qiluvchi sifatida jalb qilishda namoyon bo‘ladi. Bunda mashqlarni vizual va audio materiallar bilan boyitish o‘quvchilarning tafakkurini kengaytiradi. Masalan, matn mazmuniga mos rasm, diagramma yoki audio-kontekstli vazifalar o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini yanada faol ishlashga undaydi. Shu bilan birga, o‘quvchilar o‘z qarashlarini boshqalar bilan muvofiqlashtirish, guruh ichida muloqot qilish va natijani baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Integrativ metodlar dars jarayonini interaktiv qiladi, o‘quvchilarga bilimni faqat eslab qolish emas, balki uni real vaziyatlarda amalda qo‘llash imkonini beradi. Shu tarzda ona tili darslari nafaqat til qoidalarini o‘rgatish, balki tafakkur, ijodiy fikrlash va muloqot salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy yangilik sifatida, darslarda matnni integrativ tahlil qilish va uni interaktiv faoliyat bilan bog‘lash yondashuvi tavsiya etiladi. Masalan, o‘quvchilar matn mazmunini tahlil qilgach, uni grafik tarzda tasvirlaydi, turli fikrlarni solishtiradi va qisqa nutq yoki dialog shaklida auditoriya oldida taqdim etadi. Shu jarayon kognitiv faollikni sezilarli darajada oshiradi va o‘quvchilarning tafakkur salohiyatini kengaytiradi. Darsda integrativ metodlarni amalga oshirish uchun bir nechta konkret metodik yondashuvlar tavsiya etiladi:

[4] Karimov N. *Integrativ metodlar va kognitiv faollik.* — Toshkent: Fan, 2016.

[5] Nazarova S. *Ona tili darslarida integrativ yondashuvlar*. — Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

1. "Embodied Cognition" [6](Mujassamlashgan idrok) yondashuvi. Ona tili ta'limida ilk bor "Mujassamlashgan idrok" (Embodied Cognition) nazariyasiga asoslangan, ya'ni til qoidalarini nafaqat aql bilan, balki tana harakatlari va sensor sezgilar orqali o'zlashtirishga qaratilgan "Kinestetik-lingvistik model" darslarda foydalanishga taklif etiladi. Masalan, "Jo'nalish kelishigi" ni tushunish uchun o'quvchi sinf bo'ylab harakat traektoriyasini chizadi.
2. Metakognitiv yondashuv [7]o'quvchida "o'rganishni o'rganish" (learning to learn) kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bilish jarayonini ongli ravishda nazorat qilishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuvda dars mazmuni bilim berishdan ko'ra, o'quvchining o'z fikrlash jarayonini tahlil qilishi va refleksiya yuritishiga yo'naltiriladi. Natijada o'quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki o'z ta'lim faoliyatini boshqaruvchi subyekt sifatida shakllanadi. Masalan, sifat mavzusi o'rganilgandan so'ng o'quvchiga "Sifat nima?" degan savol berilmaydi, balki "Sifatni o'rganishda qaysi usul menga yordam berdi: misol yozishmi, taqqoslashmi yoki jadval tuzishmi?" degan savol beriladi. O'quvchi o'z o'rganish usulini baholaydi va dars oxirida qisqa refleksiya yozadi. Bu jarayon o'quvchida bilimni ongli o'zlashtirish va uni mustaqil boshqarish ko'nikmasini shakllantiradi.
3. Tanqidiy diskurs tahlili ona tili darslarida matnni nafaqat grammatik, balki mazmuniy va ta'sir nuqtayi nazaridan tahlil qilishga yo'naltiriladi. Masalan, gazeta maqolasidagi gapni o'rganishda o'quvchi ega-kesimni aniqlash bilan birga "Muallif bu so'zni nega ishlatdi? U bizni nima qilishga undayapti? Bu yerda qanday yashirin ma'no bor?" degan savollarga javob beradi. Bu yondashuv o'quvchilarda axborotni tanqidiy qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Amaliy mashqlarni tizimli tashkil etish metodik jihatdan ham muhimdir. Dars avvalida yangi tushunchalar va grammatik qoidalar tanishtiriladi, keyin ular bo'yicha interfaol mashqlar bajariladi, so'ngra matn mazmuni va vazifalar orqali bilim amalda mustahkamlanadi. Dars yakunida o'quvchilarning natijalari baholanadi, konstruktiv fikrlar beriladi va o'z-o'zini tahlil qilish mashqlari amalga oshiriladi. Integrativ metodlarni amaliy qo'llash jarayonida darsning turli shakllarini uyg'unlashtirish o'quvchilarning tafakkur va kognitiv faolligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, o'quvchilar matnni o'qib, undan yangi so'zlarni ajratib oladi, ularni turli kontekstlarda qo'llash orqali lug'at boyligini oshiradi. Bu yondashuv mantiqiy fikrlash, analiz va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, ya'ni o'quvchilar bilimni faqat yodlash bilan cheklanmay, uni faol ravishda ishlatadi. Darsda qo'llaniladigan boshqa samarali metodlar qatoriga integrativ loyiha ishlari kiradi. O'quvchilar matn asosida kichik guruh loyihalari ishlab chiqadi, masalan, matn mavzusiga mos hikoya yoki qisqa video tayyorlaydi. Shu bilan birga, loyiha ishlari o'quvchilarga o'z bilimlarini real vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi, darsni interaktiv va qiziqarli qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida integrativ va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Integrativ yondashuv matn mazmunini tahlil qilish, til birliklarini kontekstda qo'llash hamda mantiqiy va ijodiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Interfaol metodlar dars jarayonini faollashtirib, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga sharoit yaratadi. Shuningdek, metakognitiv refleksiya, mujassamlashgan idrok va tanqidiy diskurs tahliliga tayangan darslarni tashkil etish bilish jarayonining samaradorligini oshirishga ko'maklashadi.

Shu asosda darslarni rejalashtirishda integrativ va interfaol metodlarni uyg'un qo'llash, mashqlarni tahliliy va ijodiy yo'nalishlarda tashkil etish, multimedia vositalaridan samarali foydalanish va guruhli hamda individual mashqlarni uyg'unlashtirish o'quvchilarning tafakkur,

[6]https://www.researchgate.net/publication/26361108_Philosophy_in_the_Flesh_The_Embodied_Mind_and_Its_Challenge_to_Western_Thought — Mujassamlashgan idrok (Embodied Cognition) nazariyasining asosiy manbasi; til va tafakkurning tana tajribasi bilan bog'liqligi.

[7] https://jgregorymcverry.com/readings/flavell1979MetacognitionAndCogntiveMonitoring.pdf Metakognitiv yondashuv va "learning to learn" konsepsiyasining original manbasi.

muloqot va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu tarzda ona tili darslarida mazkur yondashuvlar o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirish bilan birga ularning bilimini amalda qo‘llash imkonini beradi va darslarni interaktiv, qiziqarli va samarali pedagogik jarayonga aylantiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni.

2. Nishonova K. Integrativ ta`lim tushunchasi va uning mazmun mohiyati // Ilmiy anjumanlar jurnali. – 2024. – 26-aprel. – B. 662.

3. Ibragimov R. Kognitiv faollikni rivojlantirish metodikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

4. Karimov N. Integrativ metodlar va kognitiv faollik. — Toshkent: Fan, 2016.

5. Nazarova S. Ona tili darslarida integrativ yondashuvlar. — Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

6.https://www.researchgate.net/publication/26361108_Philosophy_in_the_Flesh_The_Embodied_Mind_and_Its_Challenge_to_Western_Thought — Mujassamlashgan idrok (Embodied Cognition) nazariyasining asosiy manbasi; til va tafakkurning tana tajribasi bilan bog‘liqligi.

7.https://jgregorymcverry.com/readings/flavell1979MetacognitionAndCogntiveMonitoring.pdf Metakognitiv yondashuv va “learning to learn” konsepsiyasining original manbasi.